



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI SUHBAT QURISH O‘RGALI NUTQINI O‘STIRISH USULLARI

Ochilova Xilola SHeraliyevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Bola nutqini rivojlantirishda tevarak-atrofdagi predmetlar, voqelikni bilib borishi, uning go‘zalligini, bitmas-tuganmas murakkabliklarini his etishi, ijtimoiy munosabatlar va kattalar dunyosiga kirib borishi, uning har tomonlama kamol topishiga olib keladi.

Tayanch tushunchalar: uslubiy, psixologik, nutq, rivojlantirish, metodika, go‘zallik, shakl, vosita, voqelik.

Bolalik dunyoni zavqlanib, hissiyotlarga to‘lib idrok etish, uni kashf etish bilan uyg‘undir. Shu nuqtai nazardan qaraganda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish ham ma‘lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya‘ni bolalarda nutqni rivojlantirish maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari ifodalangan bir butun tizim texnologiyasidir. Biz hozirgi davr talabi darajasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning bir butun tizimi, mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab chiqdik hamda eng yangi talablar darajasida uni amalga oshirish metodlari, shakllari va vositalari texnologiyasini ishlab chiqdik. Nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya‘ni bolalar bilan so‘zlashishdir. So‘zlashish og‘zaki nutqning eng oddiy shakli bo‘lib, unda bola o‘zini tutishi, ko‘z qarashi, xatti-harakati, ovozining past-balandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So‘zlashish – dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofnı bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat joylarida, ko‘pchilik o‘rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e‘tibor qaratiladi.

Bunda bir-birining nutqini to‘ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so‘rash, so‘rab bilib olish dialogik nutqqa o‘rgatishning usullari sanaladi. Maxsus tayyorlanadigan muloqotlar esa dastur asosida muayyan mavzular bo‘yicha uyushtiriladi. Maxsus tayyorlangan suhbatlar quyidagicha tuziladi: dastlab mavzu belgilanadi, uning maqsadi, vositalari aniqlanadi, savollar tuziladi. Lekin bularning har biri nimaga? nima uchun? nimadan? qanday qilib? kabi izlanuvchi va muammoli savollar tarzida bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, savollar, umumlashtiruvchi xarakter kasb etishi ham mumkin. Bunda muloqot mashg‘uloti suhbat, muqaddima, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi.



Masalan, «Bahorda bog'cha hovlisiga gul o'tqazdik» mavzuida suhbat. Bu suhbat bog'cha hovlisiga gul o'tqazilgandan keyingi kun bo'lishi mumkin.

Pedagog: Bolalar, biz bog'cha hovlisiga qanaqa gullarni o'tqazdik? Kim qanday gul ko'chati olib kelgan edi?

Bolalar: Biz atirgul, ra'no gul, lola, gulsafsar, karnaygul, xrizantemalarni o'tqazdik.

Zilola: Men atirgul olib keldim.

Zumrad: Men ra'no guli ko'chatini olib keldim.

Munisa: Men xrizantema ko'chatini keltirdim.

Botir: Men lola guli piyozini olib keldim.

Pedagog: Kimning guli qaerda o'sayotganini qanday qilib bilib olasiz?

Lobar: Gullarimiz ochilganda bilib olamiz.

Pedagog: Ularni kim parvarish qiladi?

Bolalar: Hammamiz parvarish qilamiz.

Shokir: Bog'bon bobomiz parvarish qiladilar.

Pedagog: Bolalar, biz parvarish qilamizmi, bog'bon bobomizmi?

Gulnora: Bog'bon bobomiz keksalar. Biz u kishiga gullar parvarishida yordam qilishimiz kerak.

Pedagog: To'g'ri, bu gullarni biz o'tqazdik, endi ularning parvarishiga ham yordam beramiz. Ayting-chi, gullar qanday parvarish qilinadi?

Shoxsanam: Suv quyamiz.

Lola: Tagini yumshatib, chopiq qilamiz.

Gulnoza: O'tlardan tozalaymiz.

Pedagog: Juda to'g'ri javob berdingiz. Orangizda o'sayotgan gullarni payhon qilib tashlaydigan bolalar ham bormi?

Nodir: Yo'q, biz unday bolalarni gulzorimizga qo'ymaymiz.

Lobar: Gullarni yulib bo'lmaydi, deb tushuntiramiz.

Pedagog: Juda yaxshi aytdingiz. Gullarni payhon qilib bo'lmaydi. Har bir bola bittadan gul uzaversa, nima bo'ladi? Gullarni yulib ham bo'lmaydi. Chunki, ular hayotimizni yanada go'zal qiladi.

Lola: Hayotni go'zal qiladi, degani nima degani?

Pedagog: Gulzorda hamma gullar ochilganda, bog'cha hovlisi chiroyli bo'lib ketadi. Bundan hammamiz quvonamiz. Bog'chaga borgimiz kelaveradi. Kayfiyatimiz ko'tariladi. Hamma yugurib-yelib ish qilgisi keladi. Ana shularning barchasi hayotning go'zalligini anglatadi.



Sobir: Demak, xonamizdagi gullarni ham parvarish qilsak, ularni ko‘paytirsak, xonamiz ham chiroyli va go‘zal bo‘ladi.

Sayyora: Bog‘chamiz shinam bo‘ladi, biz quvonamiz. Har kuni bog‘chamizga, guruhimizga kelgimiz kelaveradi.

Suhbat jarayonida bolalarning mavzudan chalg‘ib ketish hollari ham bo‘lib turadi. Shuning uchun yo‘naltiruvchi savollardan ham foydalanish kerak. Bu xildagi suhbatlarda, albatta, bolalarning barchasi qatnashishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toxtasinovna, X. S. (2024). SYUJETLI-ROLLI O‘YINLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARINI KASBGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(1), 145-149.

2. Toxtasinovna, X. S. (2024). MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI ELEKTRON DIDAKTIK O‘YINLAR VOSITASIDA ZAMONAVIY KASBLAR BILAN TANISHTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(1), 131-135.

3. Toxtasinovna, X. S. (2024). BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI TASVIRIY-IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(1), 136-140.

4. Toxtasinovna, X. S. (2024). TEATR O‘YINLARI ORQALI MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(1), 141-144.

5. Sadikova, S., & Azamatova, D. (2022). PEDAGOGICAL INNOVATION CLUSTER OF ACTIVITY OF CENTERS IN PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(7), 1138-1143.

6. Nasreddinova, K., & Sadikova, S. (2022). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN IN A BILINGUAL ENVIRONMENT. *Science and innovation*, 1(B7), 1440-1444.

7. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations-Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, 44, 1777-1784.

8. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool



Educational Organizations-Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, 44, 1777-1784.

9. Babayeva, D. R., & Ochilova, X. S. (2022, October). Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq o'qitish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish. In *International conferences* (Vol. 1, No. 8, pp. 21-23).

10. Бабаева Д. Р., Джумашева Г. К. (2022). ПРОБУЖДЕНИЕ ИНТЕРЕСА У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К КНИГЕ. *ЖУРНАЛ ТЕКУЩИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПЕДАГОГИКИ*, 3(02), 42-46.

11. Razzaqovna, B. D. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILAR BILAN PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VOSITALARI. *QUALITY OF TEACHER EDUCATION UNDER MODERN CHALLENGES*, 1(1), 28-31.

12. Бабаева Д. Р., Ещанова Г. О. и Мадрахимова Н.Я. (2023). ТЕХНОЛОГИЯ ОЗНАКОМЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С КНИГАМИ СКАЗОК. *Европейский международный журнал педагогики*, 3(05), 74-79.

13. Babayeva, D., & G'Afforova, D. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MARKAZLAR FAOLIYATI. *Science and innovation*, 1(B7), 1152-1156.

14. Бабаева Д. Р., Джумашева Г. К., Алеуова Р. С. и Наджмиддинова Г. (2022). Формирование патриотических представлений у детей школьного возраста. *Журнал фармацевтических исследований с отрицательными результатами*, 1537-1541.